

SUD AMALIYOTIDA MEDIATIV KELISHUV TUSHUNCHASI, TUZILISHI VA IJRO ETISH XUSUSIYATLARI

Akrom Ungarov

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti,

Mediatsiya va nizolarni muqobil hal qilish usullari yo'nalishi talabasi.

ungarovakrom54@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14091142>

Annotatsiya. Ushbu maqolada mediatsiya instituti sohalarini kengaytirish, uning tartib va tamoyillarini konkretlashtirish, uning sud-huquq tizimidagi mavqei va imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, uni tartibga solish mexanizmlarini mustahkamlash tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada mediatsiya institutini yanada rivojlantirish, takomillashtirish va ijro qilish jarayonlarini nazariy jihatdan o'rganish, uning muvofiqlashtirish yuzasidan ommabop va eng samarali usullar, keng qamrovli amaliy tavsiyalar va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: mediativ kelishuv, sud amaliyoti, kelishuv tuzish, kelishuv ijrosi, mediatsiya jarayoni, mediativ kelishuv shartlari, sud qarorlari ijrosi, sud amaliyotida mediatsiya, mojaroni hal qilish usullari, mediator vazifasi.

MEDIATION AGREEMENT CONCEPT, STRUCTURE AND IMPLEMENTATION CHARACTERISTICS IN COURT PRACTICE

Abstract. This article analyzes the expansion of the spheres of the mediation institution, the concretization of its procedures and principles, the further improvement of its position and capabilities in the judicial system, and the strengthening of its regulatory mechanisms. Also, the article provides a theoretical study of the processes of further development, improvement and implementation of the mediation institution, popular and most effective methods for its coordination, comprehensive practical recommendations and suggestions.

Key words: mediation agreement, judicial practice, conclusion of an agreement, execution of an agreement, mediation process, conditions of a mediation agreement, execution of court decisions, mediation in judicial practice, conflict resolution methods, mediator's role.

ПОНЯТИЕ, СТРУКТУРА И ОСОБЕННОСТИ РЕАЛИЗАЦИИ В СУДЕБНОЙ ПРАКТИКЕ МЕДИАЦИОННОГО СОГЛАШЕНИЯ

Аннотация. В статье анализируется расширение сфер деятельности института медиации, конкретизация его процедур и принципов, дальнейшее улучшение его положения и возможностей в судебной системе, усиление его регулятивных механизмов. Также в статье дается теоретическое исследование процессов дальнейшего развития,

совершенствования и внедрения института медиации, популярные и наиболее эффективные методы его координации, комплексные практические рекомендации и предложения.

Ключевые слова: медиативное соглашение, судебная практика, заключение соглашения, исполнение соглашения, процесс медиации, условия медиативного соглашения, исполнение судебных решений, медиация в судебной практике, способы разрешения конфликтов, роль медиатора.

KIRISH

Har bir davlatda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar sharoitida nizolarni kelib chiqishi tabiiy holatdir. Nizolarni uning ishtirokchilari o'rtasida hech bir tarafga zarar yetkazmagan holda hal etishga, ular o'rtasidagi nizolarni yangi institutlar orqali muvofiqlashtirish zaruriyati ham vujudga kelmoqda.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda vujudga keladigan nizolarni hal qilishning eng keng tarqalgan ommaviy usuli bu sud yo'li bilan hal qilishdir. Lekin, nizoni suddan tashqari hal qilishning muqobil yo'llari ham borki, bunda kelishmovchiliklarni tezkor, qulay va qo'shimcha xarajatlarsiz hal qilish imkoniyatini beradi.

Nizolarni hal qilishning ana shunday muqobil usullaridan biri bu mediatsiya (vositachilik)dir.

Bugunga kunda jahon mamlakatlarida, ayniqsa bozor munosabatlari yuqori darajada shakllangan davlatlarning huquqiy tizimida nizolarni hal etishning muqobil varianti sifatida mediatsiya tartib tamoyillariga murojaat qilish ancha shakllangan usul sifatida tan olingan.

Mediatsiyaning asosiy vazifasi tomonlarning o'zaro munosabatlarini yanada rivojlantirishga ko'maklashish va tomonlarning pozitsiyasi va tegishli manfaatlarini har tomonlama baholash uchun tomonlar o'rtasida ochiq muloqotni ta'minlashdan iborat.

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy xayotida ham turli nizolarning kelib chiqishi tabiiy holdir. Chunki, rivojlanayotgan davlatning ijtimoiy-iqtisodiy xayoti turli munosabatlarga asoslangan bo'lib, ushbu munosabatlarni amalga oshirishda nizolarning kelib chiqishi muqarrar holdir.

Mamlakatimizda ham so'ngi yillarda nizolarni tinch yo'l bilan hal etishga qaratilgan turli usullar, xususan mediatsiya instituti amaliyotini qo'llashga e'tibor kuchaymoqda.

Mazkur sohani tartibga solishga qaratilgan "Mediatsiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilingan. Qonunda Mediatsiyaga quyidagicha ta'rif berilgan:

Mediatsiya – bu kelib chiqqan nizoni taraflar o'zaro maqbul qarorga erishishi uchun ularning ixtiyoriy roziligi asosida mediator ko'magida hal qilish usuli sifatida tushuniladi¹.

Yuzaga kelgan nizoni sud aralashuvisiz muqobillik usuli orqali hal qilish amaliyotini shakllantirish va uning qo'llash sohasini kengaytirish orqali mazkur sohani takomillashtirib borish zarur. Chunki, mediatsiya o'zining mohiyati jixatidan davlatning sudloviga muqobil mexanizmdir.

Mediatsiya instituti soxasidagi tadqiqotlarning dolzarbligi nafaqat sud-huquq tizimini takomillashtirish zaruriyati, balki nizolarni hal etishda mediatsiya instituti rolini yanada kuchaytirish, keng jamoatchilikda ushbu institutning qulayligi va afzalligini keng targ'ib qilish, mediatsiya instituti sohasidagi milliy va xalqaro tajribalarni qiyoslab, tahlil qilgan holda uning huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish yuzasidan taklif, tavsiya va muloxazalar tayyorlash bilan ham bog'liqdir.

Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi mediatsiya tartib-taomillarini rivojlantirish, mediatsiyaning yangi qoidalar va mexanizmlar bilan takomillashtirish, uning nazariy asoslarini o'rgangan holda amaliyotga joriy etishga qaratilgan ilmiy asoslangan holda xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning maqsadiga erishish vazifalari quyidagilardan iborat qilib belgilandi:

- mediatsiya tushunchasini tahlil qilish;
- mediatsiya tamoyillari tizimini o'rganish;
- mediatsiya turlari va modellarini yoritib berish;
- mediatsiya institutining xorijiy davlatlar tajribasida qo'llanilishini tahlil qilish;
- mediatsiyaning milliy qonunchilikda keng qo'llanilishining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish;
- mediatsiya va uni qo'llash bilan bog'liq ilmiy xulosa, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

METODLAR

Adabiyotlar tahlili: Ushbu taqdiqot sud amaliyotida mediativ kelishuv tushunchasi, tuzilishi va ijro etish xususiyatlarini aniqlash maqsadida yetakchi nazariy va amaliy manbalarni tahlil qiladi. Bu jarayonda Google Scholar, Science Direct va Cyberleninka kabi ilmiy ma'lumotlar bazalaridan foydalanildi. Adabiyotlar tahlilida ilmiy-tadqiqot jamoalarini rivojlantirish yo'llari, shuningdek, xalqaro tajribalar e'tiborga olindi. Shu bilan birga, ilmiy maqolalar, kitoblar va konferensiya materiallari ko'rib chiqildi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, tahlil va sintez, qiyosiy-huquqiy,

¹ O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/3805227>

induktsiya va deduktsiya hamda taqqoslash kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR

Ushbu tadqiqot davomida qilingan tahlillar quyidagi asosiy natijalarga olib keldi:

1. O'zbekiston Respublikasining mediatsiya to'g'risidagi qonunchiligini tahlil qilish natijasida mediativ kelishuvning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi:

- mediativ kelishuv taraflarning o'zaro kelishuvi asosida yozma shaklda tuzilishi;
- mediativ kelishuv shartlarining qonuniylik va ixtiyoriylik tamoyillariga asoslanishi.

2. Sud statistikasi ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, 2021-2023 yillar davomida mediatsiya tartib-taomili orqali hal etilgan fuqarolik ishlarining soni 2.5 baravarga oshgan. Bu ko'rsatkich mediatsiyaning sud tizimidagi ahamiyati ortib borayotganini tasdiqlaydi.

3. Xorijiy davlatlar qonunchiligini qiyosiy tahlil qilish natijasida mediativ kelishuvni tuzish va ijro etish bo'yicha quyidagi ilg'or tajribalar aniqlandi:

- mediativ kelishuvni notarial tasdiqlash amaliyoti (Germaniya tajribasi);
- mediativ kelishuv ijrosini ta'minlashning samarali mexanizmlari (Singapur modeli);
- mediativ kelishuvni elektron shaklda rasmiylashtirish imkoniyati (Janubiy Koreya tajribasi).

4. Mediativ kelishuvlarni tuzish va ijro etish amaliyotida quyidagi muammolar aniqlandi:

- mediativ kelishuvni ijro etish mexanizmlarining mukammal emasligi;
- mediatorlar malakasining yetarli darajada emasligi;
- aholining mediatsiya imkoniyatlari haqida yetarlicha xabardor emasligi.

Ushbu natijalar mediativ kelishuvning huquqiy tartibga solinishi va amaliy qo'llanilishi borasidagi mavjud holatni aks ettiradi hamda bu sohani takomillashtirish bo'yicha tegishli xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

MUHOKAMA

“Mediatsiya” so'zi ingliz lug'atida “Mediation” – o'rtalik, o'rtakashlik, nizodagi o'rtalik sifatida, lotin tilida esa “Mediare” – vositachilik qilmoq, o'rtada turmoq, oraga kirmoq ma'nolarini anglatadi.

Mediatsiya so'zining lug'aviy ma'nolarini umumlashtirib, ihtiloflarni va nizolarni hal etishda vositachilik qilish, ixtisoslashgan muloqot shakli, muzokaralar olib borish usullaridan biri sifatida tushunish mumkin.

“Mediatsiya” so'zini vujudga kelishi va uni qo'llanilishi odatda nizo yoki ihtilof mavjud bo'lgan holatlarga bog'liq bo'lib, bunda nizolashayotgan tomonlar o'rtasida paydo bo'lgan mojaro yoki ihtilofni uchinchi xolis taraf mediator (vositachi) ishtirokidagi har ikki tarafni qanoatlantiradigan yechimni topishdan iborat bo'lgan muzokara jarayoni tushunchasini ham

qamrab oladi.

Shu sababli, “Mediatsiya” so’zi–vositachi, vositachilik, yarashtirish, nizolashayotgan taraflarni o’rtasida turish tarzida qo’llaniladi.

Mediatsiyaning paydo bo’lishi va rivojlanishiga turli davrlarda shakllangan tuzumlar va ijtimoiy muhit asosiy turtki bo’lgan. Xattoki qadimgi finikiylar va vavilonliklar o’rtasidagi savdo munosabatlari vositachi yordamida amalga oshirib kelingin bo’lsa, qadimgi Gretsiyada vositachi yordamidan foydalanish amaliyoti Yustinian kodeksi ishlab chiqilgan vaqtda ham unda o’z aksini topgan. Vositachilik amaliyoti rim huquqida “Rroxenetas” deb yuritilgan bo’lsa, rimliklar vositachilarni “internuncius”, “medium”, “philantropus”, “interpolator”, “conciliator”, “interpre” va “mediator” deb nomlab kelishgan.

Taniqli olim S.Shamkalashvilining ta’kidlashicha, mediatsiya o’zining umumiy g’oyalari bo’yicha arxaik kelib chiqishga ega bo’lib, u nizolarni vujudga kelishi bilan bir vaqtda vujudga kelgan. Bunda qaror qabul qilish huquqiga ega bo’lmagan uchinchi taraf nizolashayotgan taraflarga ixtilofni mustaqil ravishda hal etish imkoniyatini beradi².

Taniqli olim D.Roebakning tadqiqotlari qadimgi Yunonistonda mediatsiya mavjud bo’lganligini ko’rsatadi³. Miloddan avvalgi II asr boshlarida da’voni hal qilishning odatiy usullaridan biri uni quyida joylashgan va javobgar yashaydigan hududning mansabdor shaxsiga (Epistat)ga topshirish edi. Ko’p hollarda nizolar “ularni yarashtirish yaxshiroq” tamoyiliga asoslangan holda hal etilgan.

Mediatsiya asosan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda vujudga keladigan nizolarni hal etish usuli sifatida ko’riladi. Biroq, jaxon xaritasida davlatlar o’rtasidagi nizolar ham uchrab turadiki, ularni ham tinch yo’l bilan hal etish zaruriyati paydo bo’ladi. Bunda halqaro tashkilotlarning o’rni va mavqei asosiy o’rin egallaydi.

Xalqaro nizolarni tinch yo’l bilan hal etish tamoyili xalqaro huquqning asosiy tamoyillaridan biridir.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining 2-moddasida belgilangan prinsiplardan kelib chiqib, BMTning barcha a’zolari xalqaro tinchlik, xavfsizlik va adolatni tahdid ostiga qo’ymaslik uchun o’zlarining halqaro nizolarini tinchlik vositalari bilan hal qilishga majbur qiladi.

BMT Nizomida belgilangan mazkur qoidalar mamlakatimizning tashqi siyosatining asosiy printsiplaridan biri hisoblanadi.

Mediatsiya bilan bog’liq izlanishlar olib borgan olimlar, shuningdek mediatsiya

² Шамкалашвили Ц. Медиация как метод внесудебного разрешения споров. М-2006. –С. 14.

³ Д.Розбак. Посредничество и арбитраж в древней Греции. 2002. С.-66.

muammolari o'rganilgan ilmiy ishlarda mazkur tushunchaga mualliflar nuqtai-nazaridan ta'riflar keltirgan.

Meler mediatsiya ta'rifiga manfaatlar nuqtai nazaridan yondashadi va uni nizolarni hal qilish uchun imperativ vakolatlarga ega bo'lmagan neytral uchinchi shaxs ishtirokida kelishmovchilikni tomonlarning manfaatlari va qadriyatlaridan kelib chiqqan holda umumiy qarorlar qabul qilishning suddan tashqari ixtiyoriy tartibi sifatida izohlaydi⁴.

Y.I.Nosirova vositachilikni uchinchi mustaqil ishtirokchi – vositachi (mediator) yordamida taraflar orasidagi muammoni tartibga solish jarayoni sifatida ko'rsa, A.Yu.Konnov vositachilikni muzokara sifatida ko'radi, lekin bunda muzokaraning vositachilikdan asosiy farqi yuzaga kelgan nizoni hal qilish maqsadida mustaqil uchinchi shaxs ishtirok etishini hisobga olish lozimligini ta'kidlaydi⁵.

A.V.Miroshnikov talqinicha, mediatsiya uchinchi shaxs - vositachi (mediator) ishtirokida ixtiyoriy muzokaralar olib borish orqali nizolashayotgan tomonlarni yarashtirish jarayoni, nizoda ishtirok etuvchi tomonlarni mazmunli va o'zaro maqbul qaror qabul qilish yo'li, buning asosi ixtiyoriy rozilik va tenglikdir⁶.

O'zbek tadqiqotchilari orasida izlanish olib borgan Sh.M.Masadikov mediatsiyani taraflarga o'zaro maqbul kelishuvga erishishga ko'maklashuvchi va qaror chiqarish huquqiga ega bo'lmagan betaraf mediator yordamida ular o'rtasidagi nizoni hal qilish usuli sifatida tushunadi⁷.

Mediatsiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, uning mazmuni ikki komponentni o'z ichiga oladi: tomonlarning muzokaralari va mediator faoliyati (mediatsiya texnologiyasi).

Mediatsiya birinchi navbatda ixtiyoriy jarayondir. O'z vaqtida mediator taraflar yoki ularning vakolatli vakillari bilan qo'shma va alohida muzokalar o'tkazadi. Mazkur holat taraflarga o'zining fikr-mulohazalarini, manfaatlarini erkin ifoda etish imkoniyatini beradi.

Mediatsiyani adolatni tiklash dasturlari sifatida talqin qilish mumkin. Bunda u jazolovchi rolini o'ynamaydi, nizoni keltirib chiqaruvchi sabablarni tahlil qilmaydi, adolat kim tarafida ekanligini belgilamaydi. U faqatgina yuzaga kelgan nizoni, kelishmovchiliklarni taraflar o'rtasida hal qilishga kirishadi. Mediatsiyaning mazmun-mohiyati uning tamoyillarida yanada ochiqroq ko'rinadi.

Mediatsiyaning shakllanishi va takomillashib borishi natijasida u tartibga soladigan

⁴ Техника ведения переговоров нотариусами: как пособие. Ред Р.Вальц. (пер. С.Трушников). 2005. –С. 142.

⁵ F.Otaxonov. Nizolarni muqobil hal qilish. To'plam. Toshkent 2022 y. –V. 4.

⁶ Мирошников А.В. Проблемы подготовки медиаторов в России // Медиация в современном мире: проблемы и перспективы развития: Материалы Всероссийской научно-практической конференции (Курск, 30 апреля 2019 года) / Под ред. А.А. Горохова. Курск: ЮгоЗапад. гос.ун-т, 2019. С. 137

⁷ Ш.М.Масадилов Сущность медиации и проблемы ее правового регулирования в Республики Узбекистан. Диссертация канд. Юрид. Наук.-Ташкент, 2008.

munosabatlar xarakteridan kelib chiqib uning jahonda tan olingan quyidagi umumiy prinsiplarga asoslanadi:

- betaraflik va xolislik;
- ixtiyoriylik;
- maxfiylik.

Betaraflik prinsipi mediator va taraflar o'rtasida yakuniy natijaga erishishni ta'minlovchi mediatiyaning asosiy prinsiplaridan biridir. Mediatsiya jarayonlarining betarafligi mediatorga taraflarga o'z talab va qiziqishlarini ochiq bildirish, xamkorlik ruhida boshqa taraf bilan ishlash va olib borilayotgan muzokaraga ishonch bildirish imkoniyatini beradi. Bunda mediatorlardan haqdorni yoki vujudga kelgan nizoni sababchisini qidirish talab etilmaydi. U kelishuv jarayoni yakunlanguniga qadar betaraf va xolis bo'lishi, taraflarning o'zlariga ma'qul keladigan yakuniy to'xtamga kelishi uchun harakat qiladi.

Ixtiyoriylik prinsipi o'zida taraflarning mediatsiya jarayonlariga o'z ixtiyorlari bilan qo'shilish, kelishuv imzolanganiga qadar jarayondan chiqishi, kelishuv qanday shartlar va usullarda bo'lishi taraflarning o'zaro yakdil qarorlari asosida amalga oshirilishini anglatadi. Bunda mediator taraflarga xech qanday huquqiy maslahatlar bermaydi, taraflar nomidan qaror qabul qilmaydi, kelishuv shartlarini belgilamaydi (tavsiya qilmaydi). Ushbu prinsipning asosiy xususiyati shundaki, mediatsiya jarayonlarida har bir taraf o'ziga ma'qul kelgan qarorni o'zi mustaqil qabul qiladi, qabul qilingan qaror va uning ijrosi bo'yicha javobgarlik taraflar zimmasida qoladi.

Maxfiylik prinsipi shunda ko'rinadiki, taraflar va mediator mediatsiya jarayonidagi muhokamalar maxfiyligini va uning oshkor etilmasligini o'zaro kelishuvda ifodalaydilar. Uning noodatiyligi shundaki, mediatsiya jarayonida qo'llanilgan o'zaro qaydlar, yozishmalar, qo'lyozmalar, video va audio yozuvlardan mediator kelgusida ushbu ish bo'yicha sud nizosi vujudga kelgan hollarda foydalana olmasligi uchun mediatsiya jarayoni tugaganidan so'ng yo'q qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasida qonun chiqaruvchi mediatsiyaning asosiy tamoyillarini to'liq ro'yxatini belgilab bergan. Qonunda mediatsiyaning ixtiyoriylik, maxfiylik, tomonlarning hamkorligi va tengligi, mediatorning xolisligi va mustaqilligi kabi printsiplar aks ettirilgan.

Qonun chiqaruvchi mazkur prinsiplarning mazmun-mohiyatini to'liq ochib bergan. Milliy qonunchilikda aks ettirilgan prinsiplar mediatsiyaning xalqaro tan olingan prinsiplari mohiyatidan kelib chiqqan holda belgilangan deyish mumkin.

Xorijiy tajriba. Mediatsiya institutining rivojlanishini davrlashtirishda uning zamonaviy

shakli birinchi marta XX asr o'rtalarida Amerika Qo'shma Shtatlarida tarqaldi. Bunga bir qator omillar yordam berdi.

1947 yilda davlat neytral vositachi sifatida ishlaydigan maxsus xizmatni yaratishda yechim topdi, ya'ni Federal vositachilik (mediatsiya) va kelishuv xizmati paydo bo'ldi.

Amerika qonunchiligiga ko'ra, fuqarolik da'volari bilan sudga murojaat qilish hech qachon arzon bo'lmagan. Tomonlar barcha sud xarajatlarini mustaqil ravishda to'lardilar, shuning uchun, ayniqsa, iqtisodiy nizolarda, sud xarajatlari miqdori yuqori darajaga yetdi, shu sababli jamiyatdagi nizolashgan taraflarni vositachilikka moyil qilish eng to'g'ri va aniq tanlov bo'lib hisoblandi.

2001 yilga kelib Amerika Qo'shma Shtatlarida mediatsiya federal darajada mustahkamlanib, "Yagona vositachilik to'g'risida"gi qonun qabul qilinishiga olib keldi.

AQSh hukumati tomonidan mediatsiya tartib tamoyillarining qo'llanishi va u qo'llaniladigan tarmoqlar xajmi kengayib, uning nizolarni hal qilishdagi samaradorligi sud tizimi vakillari, sudyalari, prokurorlar, advokatlar va hukumat amaldorlari tomonidan tan olinganidan keyin qabul qilindi⁸.

Ba'zi mamlakatlarda mediatsiyaning ancha uzoq tarixi davomida mediatsiya xizmatlarining yetakchi provayderlari paydo bo'ldi. Buyuk Britaniyada SEDR, AQShda JAMS, Portugaliyada MEDIARCOM. Bunday provayderlarga murojaat qilish orqali nizoning tavsifini belgilash, hal etish usullari, shartlari va tartiblari, mediatorlar ro'yxati, nizolarni hal etish samaradorligi, hal etish vaqti va narxlari va boshqa ma'lumotlar bilan batafsil tanishib chiqishlari mumkin⁹.

Mediatsiya Buyuk Britaniyada alohida mashhurlikka erishdi. Davlat mediatsiya tartibini fuqarolar orasida ham, professional advokatlar orasida ham maqsadli ravishda ommalashtirdi. 2004 yilda mediatsiya masalalari bo'yicha hattoki maxsus xizmat - ishonch telefoni tashkil etilib, unda mamlakatning istalgan hududidan qo'ng'iroq qilib, mojaroni tavsiflash va vositachiga nisbatan o'z xohishini bildirishi mumkin. Maxsus telefon xizmati orqali muammoni aniqlashtirish, vositachiga imtiyozlar berish, so'ralgan nizoni hal etishga mos keluvchi mediator bo'yicha takliflarni olish imkonini beradi. Bunday holatda nizoga doir tavsiflar, ma'lumotlar, hujjatlar taqdim etilib, boshqa tomon bilan uchrashtirilmagan holda vositachilik amalga oshirilishi mumkin.

Murojaatlarni bunday usulda qabul qilish tomonlarning xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Bundan tashqari mediatsiya institutini rivojlantirishga o'zini hissasini qo'shuvchi bepul vositachilik xizmatlari va yuridik maslahatlar ko'rsatadigan "Law works" nomli tashkilotlar

⁸ <https://rewardbloggers.com/blog/how-does-international-mediation-in-usa-work-2490>

⁹ Ц.А.Шамкалашвили. Медиация в России: первые шаги. Интервью. Журнал "Расчет". 2008. № 12.

tashkil etilgan.

Germaniyada mediatsiya tartibi amalda adliya tizimining ajralmas qismi bo'lib xizmat qiladi, ishlarning toifalari qonuniy tartibga solinadi, ularni ko'rib chiqish jarayonida majburiy yarashuv o'rnatiladi, ham majburiy, ham ixtiyoriy shakllarda olib boriladigan mediatsiyaning tegishli qoidalari belgilanadi. Ta'kidlash joizki, Germaniyada yarashtirish xizmatlarini yaratish, ularning yarashtiruvchi sifatidagi faoliyatini nazorat qilish tegishli qonun hujjatlari bilan belgilanadi va xususiyatlardan biri prosessual masalalarni yanada batafsil tartibga solishdir¹⁰.

XULOSA

Tadqiqot mavzusini o'rganish davomida ushbu institutning halqaro amaliyotda alohida mustaqil institut sifatida shakllanib, uning qamrab olingan sohalari tobora kengayib borayotganini, uzoq davom etadigan va ortiqcha moliyaviy yo'qotishlarga olib keladigan sud jarayonlaridan ko'ra qisqa muddatlarda, moliyaviy qulay bo'lgan hamda o'zaro yakdil qarorga kelish imkoniyati yaratib beriladigan, yuzaga kelgan nizolarga oshkoralik ruxi berilmasdan uni maxfiylik doirasida hal etadigan jarayoni sifatida shakllanib ulgurganiga amin bo'ldim.

O'tkazilgan tahlil natijalari asosida mediatsiyani qo'llash nazariyasi va amaliyotini yanada rivojlantirish nuqtai nazaridan quyidagi xulosalarga keladi.

Mediatsiya – taraflarga o'zaro manfaatli echimni ishlab chiqishda yordam beradigan neytral vositachi (mediator) ishtirokidagi maxsus tashkil etilgan muzokaralar. Ushbu yondashuv buzilgan sub'ektiv huquqlarni tiklashning eng samarali usullaridan biridir.

Mediatsiyaning asosiy belgilariga mediatsiya huquqiy nizolarni mustaqil hal etish usulidir; mediatsiya – huquqiy nizolarni suddan tashqari hal etish usuli; mediatsiya ishtirokchilari “nizoli huquqiy munosabatlar taraflari” va mediator hisoblanadi. Bundan ko'rinadiki, mediatsiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, uning mazmuni ikki komponentni o'z ichiga oladi: tomonlarning muzokaralari va mediator faoliyati (mediatsiya texnologiyasi).

Mediatsiyaning tamoyillari tizimi ikki guruhga mediatsiyani tashkil etish xususiyatlarini va uning ishtirokchilari maqomini tavsiflovchi tamoyillar (tashkiliy tamoyillar) va mediatsiyani amalga oshirishni tartibga soluvchi tamoyillar (prosessual tamoyillar)ga ajratilib, birinchi guruhga ixtiyoriylik va betaraflik tamoyillari kiradi va ikkinchisiga tomonlarning maxfiyligi, mustaqilligi, hamkorligi va teng huquqliligi tamoyillarini kiritilishi to'g'ri yondoshuv bo'ldi.

¹⁰ Wambier T. Mediation (types-qualification-skills) // International Congress of Procedural Law. Athen 11 - 14 September 2013. Commercial Litigations: Special Cases and Proceedings. Athens-Thessaloniki. P.24 - 25

TAKLIFLAR

1. *Mediatsiyaning huquqiy asosi bo'lgan O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuniga halqaro tajriba va amaliyotlarni tahlil qilib, oila qonunchiligiga mediatsiya tartib-taomillari qo'llanilishi lozim bo'lgan turkumlarini kiritish. Qonunda oilaviy munosabatlarning qaysi sohalariga nisbatan mediatsiyaning qo'llanilishi aniq belgilanmagan.*

Shu sababli, qonunda dastlabki qadam sifatida er-xotin o'rtasidagi mol-mulk, farzandlarning moddiy ta'minoti va nikoh shartnomasi bilan bog'liq masalalarda qo'llanilishi mumkinligi haqida qoidalarni belgilash maqsadga muvofiq.

2. *Sudlarda maxsus yarashuv, mediatsiya xonalarini tashkil etish orqali ularda nizolashayotgan taraflarga vositachi yordamida umumiy kelishuvga erishishlari uchun qulay sharoit yaratish. Bunda Adliya vairligi tomonidan shakllantirilgan mediatorlar reestri sudga kelgan taraflarga to'sqinliklarsiz tanishib chiqish imkoniyatlari yaratib berish lozim. Shu bilan birga, mediativ kelishuvning xususiyatlari va afzalliklari haqida xonada tegishli ma'lumotlarni berib borish va mediatorlar haqida ma'umotlar va bilan aloqa o'rnatish ma'lumotlari ko'rsatilgan bo'lishi kerak.*

3. *Advokat va notariuslar faoliyatini muvofiqlashtirishga ko'maklashuvchi palata bo'lgani kabi, Mediatorlar palatasini joriy etish, bunda reestrda kiritilgan har bir mediator ushbu palataga a'zo bo'lishi va bu palata nodavlat tashkiloti sifatida faoliyat ko'rsatishi lozim.*

4. *Bosqichma-bosqich mediatorlarni ixtisoslashuvini joriy etish. Ixtisoslashuvni mehnat, oila, korporativ, intellektual mulk nizolari, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, internet tarmog'idan foydalanish natijasida kelib chiqadigan nizolar doirasida muvofiqlashtirish zarur.*

Ixtisoslashgan mediatorlik faoliyatini zaxiraga o'tkazilgan sudyalalar va advokatlar, shuningdek notariuslar tomonidan amalga oshirish mumkinligi haqidagi normalarni belgilash.

REFERENCES

1. F.Otaxonov. Nizolarni muqobil hal qilish. To'plam. Toshkent 2022 y.
2. U.Tadjixanov. A.Saidov. Huquqiy madaniyat nazariyasi. Darslik. IIV Akademiyasi. 1998 yil.
3. Д.Розбак. Посредничество и арбитраж в древней Греции. 2002.
4. Кулапов Д.С. Принципы медиации: многообразие подходов к регулированию. Вестник Саратовской государственной юридической академии. 2014. № 2.
5. Техника ведения переговоров нотариусами: как пособие. Ред Р.Вальц. (пер. С.Трушников). 2005.
6. Гришина Н. В. Психология конфликта. 2-е изд. Н. В. Гришина. – СПб.: Питер, 2018.

7. Худойкина Т.В. Проблемы развития медиации в России. М. 2017 г.
8. Бесемер. Х. Медиация. Посредничество в конфликтах. Пер. с немец. Н. В. Кичкина. Калуга. 2004.
9. Медиация базовый курс. Основы применения медиации. Ташкент. 2019.
10. Wambier T. Mediation (types-qualification-skills). International Congress of Procedural Law. Athen 11 - 14 September 2013. Commercial Litigations: Special Cases and Proceedings. Athens-Thessaloniki.
11. Отис Л., Райтер Э.Х. Медиация в стенах суда. Медиация и право. 2011. № 1.

INTERNET SAYTLARI

12. <https://www.lex.uz/>
13. <https://www.norma.uz/>
14. <https://www.adolat.net/>
15. <https://cyberleninka.ru/>